# INKLYUZIV TA’LIMNING AMALIY ASOSLARI

**Bazarov S.K.,**GDPI o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu tezisda inklyuziv ta’limning amaliy asoslari va ularning xususiyatlar bayon qilingan bo‘lib, unda nevrotik holatdagi, psixosomatik holatdagi munosabatlarni amaliy choralari yoritilgan.

**Аннотация:** в данной диссертации описываются практические основы инклюзивного образования и их особенности, а также освещаются практические меры по борьбе с невротическими и психосоматическими состояниями.

**Abstract:** this thesis describes the practical foundations of inclusive education and their characteristics, and highlights practical measures for dealing with neurotic and psychosomatic conditions.

**Tayanch so‘zlar:** imkoniyati cheklangan bolalar, ota-onalar, pedagoglar, munosabatlar, o‘qituvchi, pedagogik-psixologik qoidalar.

Inklyuziv ta’lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalar hal etiladi: ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularnivd imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, do‘stong munosabatlarni shakllantira olish, bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalarda ajramagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish; jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan imkoniyati cheklangan bolalarni quyidagi atamalar bilan nomlang.

- Imkoniyati cheklangan bola.
- Maxsus yordamga muhtoj bola.
- Maxus ehtiyojli bola.
- Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bola.
- Ko‘rishda muammosi bo‘lgan (harakatlanishida muammosi bo‘lgan bola.
- Eshitishida mummosi bo‘lgan bola.

Keyingi bo‘limlarda har bir yo‘nalishdagi imkoniyati cheklangan соҳаларнинг o‘ziga xos xususshtlari, turlari hamda o‘sitish спекsefikasi bilan tanishtiriladi.

Umumiy tushuncha bo‘lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi. Umumiy tushuncha bo‘lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi. Umumiy tushuncha bo‘lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi. Bosh miyasining organik jarohatlanishi natijasida aqliy rivojlanishi turg‘un buzilgan bolalar. Ko‘rish qobiliyati, ko‘rish o‘tkirligi qisman buzilgan yoki keskin pasaygan-ko‘zi ojiz yoki zaif ko‘ruvchi bolalar Tayanch harakat a’zolari faoliyatida buzilishlar bo‘lgan bolalar Eshitish qobiliyati qisman yoki keskin pasaygan zaif eshituvchi hamda kar bolalar insonparvarlik nuqtai nazariga to‘g‘ri kelmaydi.

XXI asrgacha imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan "anomal bolalar" "nogiron bolalar" "ko‘r bolalar", "kar bolalar", "aqli zaif bolalar", "harakat xayat a’zolari falajlangan bolalar" va h.k tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar imkoniyati cheklangan bolalarni xuquqlarini poymol qiladi. Ota-onalarga ham salbii ta’sir etadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Imkoniyati cheklangan aslo-qobiliyatsizlik, degani emas. Har qandai holatda ham kasallik va kamchilikda ham, muammolar bulsa ham bo‘ladi. taraqqiyot davom etadi. Ya’ni, bolaning rivojlanishi to‘xtab qolmaydi imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolga nisbatan ko‘proq e’tibor va yordam talab etadi xolos.

Shuning uchun ham doimiy ravishda har bir bolaning huquqlarini ximoya kilish, kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik, ularga ijobiy munosabatda bo‘lish farzand tarbiyasida eng muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bolani alohida nom bilan tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslik talab etiladi.

Odatda ko‘pchilik ota-onalar va pedagoglar bolalar tarbiyasi bilan munosabatlarda eng muhim didaktik talablarni bilmaydilar yoki talablarga rioya qilmaydilar. Shuning uchun ham ko‘p hollarda bola xulq-atvorida ko‘plab salbiy xususiyatlar yuzaga keladi. Ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim - tarbiyasi yanada ko‘proq murakkablik tug‘diradi.

Boladagi psixofizik buzilishlarni aniqlash, maxsus pedagogikaning zamonaviy tendensiyasi sifatida ilk korreksion pedagogik ishda mutaxassis-defektolog hamda oilaning rolini tug‘r anglashni talab etadi. Rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga psixologok, metodik maslahat nazariyasini ishlab chiqishda juda yuqori darajada zaruriyat mavjud. Shuning uchun xam so‘nggi yillarda psixolog va defektologlar xizmatiga talab ortib bormokda. Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalarish qo‘llab-quvvatlash, rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan o‘zaro munosabat usullarini yaxshilash, bu usullarni to‘g‘ri anglash va boshqa bir qator masalalarni ham hal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgandek, nogiron farzandi bor oiladagi bola bilan ota-ona munosabati o‘ta muhim va murakkab muammoni kasb tadi. Hamma gap shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi ota-onaning tarbiyasiga va muomalasiga bog‘liq. yulalarning rivojlanishidagi kamchiliklar o‘z navbatida rivojlanishida ortda qolgan bolalarning o‘z ota-onasi bilan o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi, shaxslararo muloqot usullarini shakllantirishni qiyinlashtirishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘plab mutaxassis olimlar nogiron bolaning ijtimoiy moslashuvida oilaning roli katta ekanligini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Imkoniyati cheklangan bolalarga oiladagi ota-ona munosabatlarini quyidagi turlari farqlanadi:

- avtoritar uslubdagi munosabatlar;
- nevrotik holatdagi munsabatlar;

- psixosomatik holatdagi munosabatlar;
- me’yordagi ijobiy munosabat.

Avtoritar uslubdagi munosabatlarda ota-onalar o‘zlarining shaxsiy his-tuyg‘ulari bilan yashashga intiladilar. Farzand garbiyasida asabiy, qo‘pol tanbehlar, tarbiyaviy ishlarni olib borishda me’yoriy chegaralarning yo‘qligi, boladagi mavjud kamchilikni katta fojea sifatida qabul qilish asosida qo‘ni-qo‘shnilardan bolani bekitishga urinish, imkon qadar mutaxassislarga ham murojaat qilmaslik bilan xarakterlanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida avtoritar uslubdagi munosabatlar juda katta salbiy ta’sir etadi. Imkoniyatlarini yanada chegaralaydi, ikkilamchi nuqsonlarning chukurlashib ketishiga, ijtimoiy jamiyaga moslashuvining kiyinlashuvita va boshqa ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi.

Nevrotik holatdagi munsabatlar bolani tashqi muhit muammolaridan himoya qilish, doimo xavotirli kayfiyat, bolaga haddan tashqari ortiqcha g‘amxo‘rlik qilish bilan xarakteralanadi. oladagi nuqsonni bartaraf etishga umidsizlik bilan qaraydilar, ishonchsizlik hosil qiladilar. Bunday holatdagi munosabaglar imkoniyati cheklangan bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat qilnsh malakalarining shakllanmasligiga yoki juda kech shakllppishigi,ijtimoiy hayotga moslashuvining qiyinlashuviga, boqimandalik kayfiyatida voyaga yetishiga olib keladi. Bunday holatdagi munosabatlar imkoniyati cheklangan bolalar kelajak hayotiga salbiy ta’sir etmasdan qolmaydi.

Nevrotik holatdagi, Psixosomatnk holatdagi munosabatlarda bolaga har ikkala nevrotik va avtoritar uslubda munosabat ko‘rsatiladi. Ya’ni, ota-ona nogiron bolaga ham haddan tashqari g‘amxo‘rlik qiladi ham bolaning imkoniyatlarini chegaralaydi. Bunday munosabat bolaning boshqalarga qaramligini ortishiga, ijtimoiy jamiyat haqidagi tasavvurlarining yanada torayib borishiga, nuqsonlarining chuqurlashib ketishiga olib keladi.

Me’yordagi ijobiy munosabatda ota-ona nogiron farzandiga avvalo shaxs sifatida qaraydi. Uning kamchiligidan uyalishi, qo‘rqish, hadiksirash hissida yashamaydi. Mutaxassislar bilan doimiy hamkorlik o‘rnatishda intiladi. Mutaxassislar maslahatlari va ko‘rsatmalariga amal qiladilar. Farzandining kelajagiga ishonch bilan qaraydi. Bunday holatdaga munosabat asosida boladagi mavjud nuqsonni erta aniqlash, samarali korreksiyalash va ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish imkoniyatlarini paydo qiladi. Bolaning o‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalari yuqori darajada rivojlanadi, ijtimoiy hayotga erta va imkon qadar to‘laqonli moslashadilar.

Bundan tashqari imkoniyati cheklangan bola tarbiyalanayotgan oila ko‘p hollarda psixotravmatik holatda bo‘lishi kuzatiladi.